



## NATIJAGA YO`NALTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISH VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

**Hamroyev Murodjon Jalolovich**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12177586>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-June 2024 yil

Ma'qullandi: 15- June 2024 yil

Nashr qilindi: 20- June 2024 yil

### KEY WORDS

давлат бошқаруви, ислохот,  
ихчам бошқарув,  
рақобатбардошлик, рақамли  
хукумат, "Самарали давлат

### ABSTRACT

жаҳон иқтисодиётида глобаллашув  
жараёнларининг тобора чуқурлашиб бориши,  
замонавий технология, товар ва хомашё ҳамда  
молиявий ресурслар бозорларида рақобатнинг  
янада кескинлашуви, табиийки, давлат бошқаруви  
tizimini такомиллаштириш, хусусан,  
давлатнинг иқтисодиётга аралашуви масаласида  
самарали ислохотларни амалга оширишни тақозо  
этади. Ушбу мақолада ана шу жиҳатлар ёритиб  
берилган.

Shiddat bilan o'zgarayotgan zamon talabi, yangi zamonaviy texnologiyalarning tez o'zgarishi va takomillashib borishi rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqaruvning eng samarador va natijador usullarini qo'llashni, zamon talablariga tez moslashuvchanlikni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, umuman, davlatni rivojlantirish mavjud resurslardan oqilona foydalanish, tejankor texnologiyalarni qo'llash, boshqaruvning samaradorligini oshirish kabi bir qancha talablarni namoyon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan –2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar natijaga yo'naltirilgan boshqaruvsida. Yangi O'zbekistonni qurish asoslarini belgilab berdi. Harakatlar natijaga yo'naltirilgan boshqaruvsida mamlakatni rivojlantirishning barcha jabhalari va sohaları qamrab olindi, 2017-2021 yillar Davlat dasturlarida ushbu yo'nalishlar kengaytirilgan holda o'z aksini topdi.

Shu nuqtai nazardan aytish joizki, –2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar natijaga yo'naltirilgan boshqaruvsil va uni amalga oshirishga doir qabul qilingan Davlat dasturlari mamlakatni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlarni belgilab berdi. Natijada ushbu yondashuvni har bir tarmoq, har bir hudud misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni tarmoqlar, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan uzoq va qisqa muddatli aniq dasturlarning qabul qilinishi boshqaruvda aniqlik va natijaga yo'nalganlikni belgilab berdi.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan yangi iqtisodiy mexanizmlarning shakllanishi sharoitida korxonalar, tashkilotlar va firmalar bozor qonunlari va talablari bilan hisoblashgan holda, ishlab chiqarish faoliyatining barcha usullarini o'zgaruvchan vaziyatga moslashtirib,

yangi iqtisodiy xulq-atvorni o'zlashtirib, yangicha ishlash zaruriyatiga duch keladilar. Shu munosabat bilan korxonalar faoliyatining yakuniy natijalariga har bir xodimning hissasi ortadi. Mulkdorlik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar uchun asosiy vazifalardan biri - bu mehnatni boshqarishning samarali usullarini izlash, inson omilining faollashuvini ta'minlash.

Yaponiya –Kayzen|| doimiy takomillashtirish falsafasi boshqaruvdagi mavjud muammolarni hal qilish usullaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

–Kayzen|| konsepsiyasi ishlab chiqarish tizimi va yetakchilikni doimiy takomillashtirishdan iborat.

–Kayzen|| o'z-o'zini takomillashtiradi va uni individual holatlar, qolaversa butun korporativ tizimni takomillashtirish uchun ham ishlatish mumkin.

Iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonning o'tgan asrdagi sekinlik bilan kechishi uni to'liq sinab ko'rishga imkon bermadi. Postindustrial davridagi jadal iqtisodiy rivojlanish sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi: innovatsion jarayonlar taraqqiyot shartiga aylandi; innovatsiyalar ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylanmoqda; o'zgarishlar tezligi oshmoqda. Innovatsion faoliyat asosiy faoliyat maqomiga da'vogarlik qilmoqda va korxonaning natijaga yo'naltirilgan rivojlanishi uchun zarur shartidir.

Bugungi sharoit xodimlar manfaati va huquqlarini himoya qilish, moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini tubdan yangilash, ularning burch va majburiyatlarini bajarishlari bo'yicha mas'uliyatini oshirish, yuqori foyda bilan ishlashga undovchi omillarni kuchaytirishni talab etmoqda. Bularning barchasi, shubhasiz, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuqori malakali, mas'uliyatli va yetuk kadrlar bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq.

Buning uchun ta'lim tizimi, ayniqsa, barcha sohaga bo'lajak kadrlarni tayyorlashning tayanchi bo'lgan oliy o'quv yurtlari faoliyatini zamon talablari asosida yanada takomillashtirish, ta'lim xizmatlari sifatini jahon andozalari darajasida ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, respublikamiz va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda to'plangan ilg'or tajribani atroflicha o'rganish, chuqur tahlil qilish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini mutlaqo yangilash lozim bo'lmoqda. Chunki bu jarayon muntazamlilik va davomiylikni talab etadi.

Hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirib borishga katta ahamiyat qaratiladi. Bu borada ayniqsa, Yaponiya, AQSh va Yevropa mamlakatlarida boshqaruv sohasida kadrlar tayyorlash borasida to'plangan juda katta tajribani o'rganish asosida o'zimizni qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni va xalqimiz mintalitetini hisobga olgan holda ularni joriy etish ahamiyatli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi besh yilda boshqaruvda natijadorlikni oshirish maqsadida keng ko'lamlilik islohotlar olib borilmoqda. Avvalo samarali boshqaruvning institutsional asoslari yaratildi, davlat boshqaruvi organlarida optimallashtirish jarayonlari amalga oshirildi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi, davlat boshqaruvi tizimiga ishga qabul qilishning shaffof va raqobatga asoslangan tizimi yo'lga qo'yildi, KPI tizimini joriy etish orqali davlat xizmatchilari o'rtasida sog'lom raqobat hosil bo'ldi, pirovard natijada aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati yaxshilanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida boshqaruv samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarga ham to'xtaldik. Albatta, islohotlar o'z natijasini ham ko'rsatmoqda. Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlash bo'yicha Respublika Kengashining ma'lumotlariga ko'ra Jahon bankining Statistik salohiyat indeksida O'zbekiston 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 16 pog'onaga ko'tarilib, 146 ta mamlakat orasida 61-o'rinni egallagan bo'lsa, Jahon mamlakatlari demoqratiyasi indeksida mamlakatimizning o'rni 2020 yilda 2 pog'onaga yuqorilab, 167 ta mamlakat ichida 155-o'rinni egallagan. Global innovatsion indeksda O'zbekiston jami 100 balldan 24,54 ball bilan 2015 yilga nisbatan o'z o'rnini 29 pog'onaga yaxshilab, 131 ta mamlakat orasida 93-o'rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida esa 4-o'rinni qayd etdi.

Jahon bankining –Ayollar, biznes va qonun indeksi||da O'zbekiston xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritilib, 70,6 ball bilan 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasidan 134-o'rinni (2019 yilda - 139-o'rin) egallagan. Bu kabi ijobiy natijalarni boshqa Xalqaro reytinglar va indekslarda ham kuzatishimiz mumkin. Albatta, Xalqaro reytinglar va indekslarda mamlakatning o'z pozitsiyalarini yaxshilab borishi mazkur davlatda olib borilayotgan to'g'ri ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning natijasi sifatida qaraladi. Qolaversa, yildan-yilga reyinglarning yaxshilanib borishi, dunyo hamjamiyatining mamlakatga ijobiy qiziqishini oshib borishiga xizmat qiladi.

**Davlat boshqaruvi sifati global in- dekslarda aks etadi.** Har bir tashkilot tomonidan kullaniladigan baxolash usul- larining xilma-xilligiga qaramay, Qonun ustuvorligi indeksi (Rule of Law Index), Kor- rupsiyani kabul qilish indeksi (Corruption Perception Index), BMTning Elektron hukumat- ni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index), Butunjaxon iqtisodiy forumining Global rakobatbardoshlik in- deksi (Global Competitiveness Index) aloxida e'tiborga loyik.

1-jadval

**Davlat boshqaruvi organlari soni va mamlakatning global indekslar va reytinglarda urni urtasidagi borliklik**

Davlat boshqaruvida ko'rsatkichlar	Davlatlar nomi											
	AQSH	Belarus	Birlashgan arab amirligi	Buyuk Britaniya	Vengriya	Germaniya	Janubiy Koreya	Ozarbayjon	Qozog'iston	Singapur	Turkiya	O'zbekiston
Vazirliklar soni	15	24	17	23	8	14	18	17	17	16	17	21
Global raqobatbardoshlik indeksi	4	58	25	10	37	14	27	55	62	2	81	-
Boshqaruv sifati indikatorlari: Hukumat samaradorligi va tartibga solish sifati	25	147	22	28	51	26	19	72	79	1	97	105

Qonun ustuvorligi indeksi	26	99	37	15	73	6	19	103	65	17	116	78
Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi	41	34	85	11	21	6	27	50	65	60	71	77

Global iqtisodiy makonning samarali ishtirokchisiga aylanishni niyat qilgan O'zbekistonda keyingi 3-4 yil ichida global reytinglar va indekslarda o'zmunosib ur-niga ega bulish maqsadida kator qarorlar va dasturlar kabul qilinib, samarali natija- larga erishib kelinmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, natijaga yunaltirilgan davlat apparatini shakllantirish maqsadida, samarali ma'muriy isloxlarni amalga oshirish shunchaki abstrakt jarayon bulmay, u anik va tegishli indikatorlar orqali baxo- lanadigan harakatlar majmuidir.

Kuyidagi jadvalda dunyoning kator mam- lakatlarida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xususan, vazirliklar, davlat regulyativ funksiyalari va davlat xizmatchilari sonining kiskarishi davlat boshqaruvi, anikroFi, samarali davlat tizi- mining shakllanishiga kandy bog`liqligini kurish mumkin.

Masalan, Belarus Respublikasida vazirliklar soni 24 ta bulgan bir vaqtda, Global rakobatbardoshlik indeksi buyicha 58-o`rinda, Boshqaruv sifati indikatorla- ri buyicha 147-o`rinda, huquq ustuvorligi indeksi buyicha esa, 99-o`rinda. Ammo bor yuri 16 ta vazirlikka ega bulgan Singapur mazkur indekslarda, mos ravishda, 2-o`rin- da, 1-o`rinda va 17-o`rinda. Shunday taxlilni Turkiya va Uzbekistan davlatlari misolida ham kurish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисдаги нутқ. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 26 б.
2. Қўчқоров В. Глобаллашув жараёнида раҳбарнинг маънавий қиёфаси. // “Бошқарувнинг ижтимоий-психологик жиҳатларини ўрганишда замонавий тадқиқот усуллари” мавзуидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2016. – 16 б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-т. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 20 б.
4. Миронов Е.А. Диалектика взаимодействия: сотрудничество и конфликт. Вестник СПбГУ. Сер. 16. 2012. Вып. 3.
5. Черепанова Е.С. Философия конфликта. – Екатеринбург: Уральский университет, 2016. – С. 74.
6. Ашуров М. Жамоада низоли вазиятларни бошқариш ва унинг ижтимоий ривожланишини таъминлашда раҳбарнинг роли. // “Бошқарувнинг ижтимоий-психологик жиҳатларини ўрганишда замонавий тадқиқот усуллари” мавзуидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2016. – 164 б.
7. Хожиев Э.Т., Исмаилова Г.С., Рахимова М.А. Давлат хизмати. – Т.: Vaktriya press, 2015. – 9 б. хизмати тўғрисида”ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2022 й., 03/22/788/0723-сон.